

AMIR TEMUR MAQBARASI

Ilmiy rahbar: Xurshid Samatov O'lmasjonovich

Kaxxarov Zayniddin Amiriddin O'g'li

Toshkend Axborot Texnologiyalar Universiteti

Samarqand filiali talabasi.

Telefon raqam:+998957077943

Elektron pochta: zayniddin200522@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Amir Temur maqbarasi yoki Go'ri Amir maqbarasi nomi bilan tanilgan tarixiy inshoat haqida. Bugungi kunda, Amir Temur maqbarasi turistlar, tarixshunoslar va boshqalar uchun ahamiyatli sayohatgoh bo'lib, shahar nomi bilan birga Samarqandning eng keng akslaridan biri sifatida taniladi.

Kalit so'zlar: Go'ri Amir, ommaviy, tarixiy, minora, maqbara, gumbaz, naqshlar.

Mustaqillik yillarda, Sohibqiron Amir Temur tavalludining 660-yilligi va Mirzo Ulug'bek tavalludining 600-yilligi munosabati bilan maqbarada katta hajmda ta'mirlash ishlari olib borildi. XIX asr ning oxirida qulab tushgan minora va gumbazning zar qubbasi qayta tiklandi. Birinchi restavratsiya ishlarini temuriylar sulolasiga vakillari amalga oshirgan bo'lsa, XVII asrdan boshlab Hindistonda boburiylar o'z ajdodlari Temur xotirasiga har yili maqbara binosini ta'mirlash uchun katta miqdorda mablag' jo'natgan. Masalan, 1621-yilda Boburiy Jahongir (1605—1627) Samarqandga kelib, 30 ming rupiy olib kelgan, shundan 5 ming rupiysi Amir Temur qabrini obod qilishga ajratilgan. Markaziy Osiyo me'morchiligining noyob asari sifatida e'tirof etilgan Amir Temur maqbarasining qurilishi 1403-yilda boshlanib, 1424-yilda tugatilgan[2]. Maqbara Amir Temurning taxt vorisi, deb e'lon qilingan nabirasi Muhammad Sulton uchun qurdirilgan. Muhammad Sulton 1403-yilda Kichik Osiyoga qilgan safari vaqtida, 29 yoshida bevaqt vafot etadi. Shahzoda Samarqandga keltirilib, dastlab masjidning

xonaqosida dafn qilingan. Maqbara sakkiz burchakli gumbaz asosida barpo etilgan. Hozirgi zamon mutaxassislarini ham birmuncha o‘ychanlik bilan fikrlashga undaydi. Binoning mo‘tadil haroratini saqlash, Sharqona qurilish uslublari orqali el ardog‘ida bo‘lgan shaxslarni o‘ziga xos hurmat bilan ulug‘lash, ularning buyukligini bezirim bezaklar orqali ifodalash kabi xususiyatlari har qanday kishini lol qoldiradi. Sohibqiron Amir Temur ham ushbu maqbaradan (1405-yil) abadiy qo‘nim topgan. 1409-yilda Amir Temurning kenja o‘g‘li, Xuroson hukmdori Shohrux Mirzo otasining ma’naviy piri Mirsaid Barakaning jasadini (turbati) Andxoydan olib keltirib, shu maqbaraga, Sohibqironning bosh tomoniga dafn ettiradi. Bu bilan otasi – Amir Temurning vasiyatini bajaradi. Maqbaraning ichki tomoni tilla suvi yogurtirilgan bo‘rtma qog‘oz naqshi bilan bezatilgan. Bezaklarda ishlatilgan kompozitsiyada Qur’oni Karim oyatlari islomiy, handasaviy naqshlar hamda arabiylar xattotlik san’atining kaligrafik naqshlari bilan bitilgan. Maqbaraga, shuningdek, Mironshoh Mirzo va Shohrux Mirzo ham dafn etilib, temuriylar xilxonasiga aylangan. 1449-yilda Mirzo Ulug‘bek ham shu maqbaraga, bobosining poyiga dafn etilgan. 1916-yilda qabrlar ustidagi qabrtosh qayt qurilib, marmar pollar qayta ishlangan. 1950-yillarda tashqi gumbazlari va ustunlari qayta tiklangan. 1967-yilda Samarqand shahrining 2500 yillik tantanalariga tayyorgarlik munosabati bilan Sh. Rashidov tashabbusi ostida majmuada keng ko‘lamli restavratsiya ishlari boshlangan. Xalq orasida Go‘ri Amir yoki Go‘ri Mir (Mir Sayyid Baraka) deb nomlanib kelinadi. Maqbaraga temuriylar sulolasiga mansub kishilar (Amir Temur, uning piri Mir Sayyid Baraka, o‘g‘illari Umar-shayx, Mironshoh va Shohrux, nabiralari Muhammad Sulton, Ulug‘bek va b.) dafn etilgan. Boburning ta’kidlashicha, dastlab Temurning nabirasi Muhammad Sulton Mirzo Samarqand qal’asi janubida Toshqo‘rg‘on — chaqarda Madrasa qurdirgan. Muhammad Sulton halok bo‘lgach (1403), Amir Temur uning xotirasiga maqbara qurish haqida farmon berdi. Maqbara Madrasa hovlisining to‘riga bunyod etilgan. Bizgacha, asosan, peshtoqli darvozasi bor hovli va maqbara binosi saqlangan. Arxeologik tadqiqotlar natijasida maqbara hovlisining ikki yonidan Muhammad Sulton qurdirgan Madrasa va xonaqoh qoddiqlari topilgan. Madrasa va

xonaqoh chorsi hovlining sharqiy va g‘arbiy tomonlarini egalla-gan. Hovlining jan.da gumbazli maqbara joylashgan. Maqbaraga jan. dan, Ulug‘bek qurdirgan dalon (1424) orqali kiriladi. Maqbaraning chortoq tarhli ziyorat-xonasi baland toqi — ravoqli, tepa-si yozuv hoshiyalari va ichki gumbaz bilan qoplangan. Tashki gumbazi 64 qobirg‘ali, baland poygumbaz (diametri — 15 m, bal. 12,5 m)ga o‘rnatalgan. Hovli atrofini o‘rab turgan devorlar ikki qavatli bezakli ravoqlarga bo‘lingan. Hovlining tashqi burchaklarida to‘rt minoralar bo‘lgan. Yuqoriga ko‘tarilgan sari ingichkalashib borgan minora Registon maydonidagi Mirzo Ulug‘bek madrasasi minoralari kabi sharafa bilan bezatilgan. Minoraning asosi bilan tepasi orasidagi tafovut koshin plitalar terishda ustalik bilan bartaraf qilingan. Koshinlar har bir qatoriga bir xil miqdorda koshin plitalar terilgan holda, ular orasidagi choklar yuqoriga ko‘tarilgan sari torayib boradi va tepasiga yetib tutashadi. Mirzo Ulug‘bek davrida maqbaraga kirish uchun qurilgan eshikning yoni va tepalari nafis bezatilgan. Ilgari eshik tepasida: „Bu shavkatli Amir Temurning qabri...“ deb yozilgan koshinli lavha bo‘lgan (bu plita hozir Sankt-Peterburgdagi Davlat Ermitajida saqlanadi). Maqbaraga qator gumbazli galereyadan o‘tib kiriladi. Galereyadan o‘tib, Temuriylar maqbarasiga kiriladi. Maqbara g‘oyatda nafis bezatilgan. Devorning pastki qismida ko‘kimir shaffof oniks toshidan ishlangan izora bor. Oniksning choklari ko‘kimir toshlar terib bezatilgan. Maqbaraga rangdor oynalar solingan panjarali darchadan yorug‘lik tushadi. Shu oynalardan o‘tib tushgan quyosh nuridan maqbara ichi rang-barang tovlanib turadi. Bizgacha, asosan, peshtoqli darvozasi bor hovli va maqbara binosi saqlangan. Arxeologik tadqiqotlar natijasida maqbara hovlisining ikki yonidan Muhammad Sulton qurdirgan Madrasa va xonaqoh qoddiqlari topilgan. Madrasa va xonaqoh chorsi hovlining sharqiy va g‘arbiy tomonlarini egalla-gan. Maqbara tashqi ko‘rinishini qurishda gumbazga katta ahamiyat berilgan. Gumbazning pastki qismining aylanasi 15 metr, balandligi 12,5 metr bo‘lsa-da, og‘irligi sezilmaydi. Buning sababi shundaki, 64 qovurg‘ali gumbazning og‘irligi chiroyli ishlangan kamar orqali mustahkam poydevor doirasiga tushadi. Gumbazning rang-barang dizayni katta ahamiyatga ega. Gumbazda ko‘k rang ko‘proq qo‘llanilganligi sababli, bu rang gumbazning qiyshiq

qovurg‘alarida yaltirab, quyoshda xuddi osmonga qaragandek porlab turadi. Gumbazning tepasi sirli koshinlar bilan qoplangan. Maqbara hashamatli sakkiz qirrali asosda qurilgan bo‘lib, uning tashqi bezaklari devorlariga marmar bitiklar bilan qoplangan bo‘lib, ular orasida „subhanallohu bihamdih va subhanollohul azim va bihamdih“ duosi bitilgan, ya’ni kufiy yozuvida Alloh taologa hamd aytishdir. Flanj atrofida eni ikki metrli yozuv bo‘lib, unga Qur’onning „Mulk“ surasi tepadan pastga qarab yozilgan. Xonalarning ichki devorlari ham katta-katta hoshiyalarga bo‘linib, kichik bezak naqshlarida „Muhammad Allohnini ko‘rdi, Ali“ so‘zları bitilgan. Maqbaraning uchta darvozasi va bitta mehrobgohi bo‘lib, uning tepasida va yon tomonlarida islomda juda nodir va ishonchli hisoblangan hadislar bor. Ular:

۱. **م فرکدی ر ع پسی جوهیل ف وی ز، ب داهی کاف و.**

– Maslahat berishga vaqt yetarli. Uni ajratish uchun bitta o‘lim kifoya.

۲. **ماف ت-ز وزور بیل کاب لا ماف نی-ل بیل اشد ته يد.**

„O‘lishdan oldin, bunga tayyor ekanligingizga ishonch hosil qiling.“

۳. **وی دری سیوز نا الله ک تاب ی و ت لوزا الله ، ب بیوت من ب بیتین من مو.**

۴. **بیماز داھم ف بیمو الله وذکرم لائز کة وغوشہ یاھم رحمة لادو مز وزیر لای لاب بینھم ف بیما**

„Qur’on o‘qiladigan va o‘rganiladigan har bir xonadonga Allohning rahmati yog‘iladi va Allohnin zikr qiluvchilarni farishtalar o‘rab oladi“.

۵. **أهوز اه أهوزه ومن الله عکرمة أکراماھو، ف امان أرزي ف ی زیر لمول و ال سلطان،**

الله“.

„Podshoh Allohning yerdagi soyasidir, kim uni hurmat qilsa, Alloh ham uni hurmat qiladi“. Kim uni xor qilsa, Alloh ham uni xor qiladi.

۶. **زوری م نان ال ماز وبر بیری إز دال وھو ال مکس بیتے بینا.**

– Muqislar (kamtar odamlar) Alloh huzurida nur minbarlarida o‘tiradilar.

۷. **سنه سنه بین ع بدات من ه بیرون سات ان حکم بین ف ی دل نا ال زیر نته.**

„Bir soatlik adolat oltmis yillik namozdan afzaldir“.

عن الحديث عن ورثة متن العجميدة الـماضي صفات تذكر كـ ثبات هناك،“
الـسـيـئـاتـ“.

– O‘tmishning yaxshi fazilatlarini tilga olgan, yomonliklarini gapirishdan saqlanuvchi yozuvlar bor.

Uzoqdan maqbara havoday kumushrang ko‘rinadi. Faqat gumbaz biroz mavimsi va sezilmas tarzda aralashadi. Binoga yaqinlashganda, gumbazning sakkiz burchakli qismida havorang rangdagi geometrik shakllar va gumbazni ushlab turgan doira havodor rangdagi bosh harflardan iborat bo‘lgan tartibda yozilgan yozuvlar yaqqol ko‘rina boshlaydi. Keyin kirish shaklini to‘ldirish uchun ko‘k chiziqlar va harflar orasiga sukunatlar o‘rnataladi. Binoga yaqinlashgan sari uning arxitekturasining hunarmandchiligidan hayratga tushasiz. Derazalarga yotqizilgan muhtasham koshinlar, maqbara poydevoridagi marmardagi nafis naqshlar e’tiborni tortadi va bundan nafis bezak yaratishning iloji yo‘qdek taassurot uyg‘otadi. Ammo Izora sharafiga hovlining miniatyura arkalarida shunday nafis tilla taqinchoqlar borki, ular juda mohirona ishlangan, nodir durdona asarlar qolgan. Maqbaraning mutanosiblik nisbati, naqshlari, turli bezaklari katta mahorat bilan bajarilgan. Tashqi peshtoq darvozasining tepasida me’mor – usta „Muhammad binni Mahmud al-banno Is-faxoniy“ nomi saqlangan. Keyinchalik maqbara bir necha bor ta’mirlandi, gum-bazi qayta tiklanib, xonaqoh va Madra-sa qoldiqlari kavlab topildi, ichki va tashqi bezaklar ta’mir etildi.

Foydalanilgan adabiyodlar ro’yhadi

1. <https://uz.wikipedia.org>
2. <https://islom.ziyouz.com>
3. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005).
4. O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
5. Samarqand viloyati rasmiy sayti, 2013-02-18da asl nusxadan arxivlandi, qaraldi:

2013-01-15

6. М. Герасимова, К. Герасимова Михаил Герасимов: Издательство: М.: , с.. Я ищу лица. О восстановлении внешнего облика исторических лиц. М.: Наука, 2007 — 37—38 bet.
7. Милана Милана. „Тайна гробницы Тимура Проклятие Тамерлана“ (ru). YouTube. 18-yanvar 2020-yilda asl nusxadan arxivlandi. Qaraldi: 5-yanvar 2020-yil.
8. Amriddin Berdimuradov. Gur-i Amir makbarasi, Toshkent, 1996, s.5-7
9. Г. Н. Матюшин. Археологический словарь, Учебное издание, М.: Просвещение, 1996 — 61 bet. ISBN 5-09-004958-0.
10. Samatov K. Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society //Theoretical & Applied Science. – 2016. – №. 2. – С. 175-179.